



**ASES**  
ACADEMY OF SCIENTIFIC AND  
EDUCATIONAL STUDIES



  
**ORIENTAL**  
UNIVERSITETI

# **ASES**

# **11. INTERNATIONAL**

# **HEALTH, ENGINEERING**

# **AND SCIENCES**

# **CONGRESS**

**28-30 November 2025**

## **CONGRESS BOOK**

**EDITOR: Assoc. Prof. MUROT MUSAYEV**  
**KOMILJON BO'RIBOYEVICH**

**ISBN: 978-625-92930-4-2**

# **XI. INTERNATIONAL HEALTH ENGINEERING AND SCIENCES CONFERENCE**

**NOVEMBER 28- 30,2025  
JIZZAX, UZBEKISTAN**

EDITOR

Assoc. Prof. MUROTMUSAYEV

KOMILJON BO'RIBOYEVIC

COPYRIGHT © 2025

BY ASES CONGRESS ORGANIZATION

PUBLISHING COMPANY LIMITED

ALL RIGHTS RESERVED. NO PART OF THIS PUBLICATION MAY BE REPRODUCED, DISTRIBUTED OR TRANSMITTED IN ANY FORM OR BY ANY MEANS, INCLUDING PHOTOCOPYING, RECORDING OR OTHER ELECTRONIC OR MECHANICAL METHODS, WITHOUT THE PRIOR WRITTEN PERMISSION OF THE PUBLISHER, EXCEPT IN THE CASE OF BRIEF QUOTATIONS EMBODIED IN CRITICAL REVIEWS AND CERTAIN OTHER NONCOMMERCIAL USES PERMITTED BY COPYRIGHT LAW. ASES CONGRESS ORGANIZATION PUBLISHING® IT IS RESPONSIBILITY OF THE AUTHOR TO ABIDE BY THE PUBLISHING ETHICS RULES.

ASES PUBLICATIONS – 2025©

LICANCE KEY: 2022/ 63715

25.12.2025

ISBN: 978-625-92930-4-2

**XI. INTERNATIONAL HEALTH ENGINEERING AND SCIENCES CONFERENCE**  
**JIZZAX, UZBEKISTAN, 28-30 NOVEMBER**  
**CONFERENCE PROGRAM**

**29.11.2025**  
**SATURDAY / 10:30-12:30**  
**SESSION: 1 HALL: 12/ MODERATOR**  
**Kuyliyeva Orzigul Rajabboevna**

<b>AUTHORS</b>	<b>UNIVERSITY/INSTITUTION</b>	<b>TOPIC TITLE</b>
Kuyliyeva Orzigul Rajabboevna	Oriental Üniversitesi	KİŞİLERARASI İLETİŞİM VE DAVRANIŞI ANLAMININ PSİKOLOJİK İŞLEMSEL ANALİZİ
Odilbekov Mansurbek Maxmudjon o'g'li Abduqaxxorova Mubina Abdusattor qizi	Oriental Üniversitesi	STRESSGA CHIDAMLILIK VA KASBIY MOTIVATSIYA O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNING PSIXOLOGIK TAHLILI
Mansurbek Odilbekov Ilxomova Durdonaxon	Oriental Üniversitesi	SHAXSNING O'ZINI BAHOLASHI VA IJTIMOY MOSLASHUV DARAJASI O'RTASIDAGI PSIXOLOGIK BOG'LIQLIK
Mamanazarov Uchqun Burxon o'g'li Abdullaeva Afruza Umiq qizi	Oriental universiteti	THE STUDY OF FAMILY RELATIONSHIPS IN THE RESEARCH OF FOREIGN PSYCHOLOGISTS
G'ofurov Jamoliddin	Oriental universiteti	MATEMATIKA O'QITISHNING KLASSIK METODLARIDAN ZAMONAVIY USULLARIGA O'TISH ASOSLARI

  
**ASES**  
ACADEMY OF SCIENTIFIC AND  
EDUCATIONAL STUDIES

<b>CHUKWUEMEKA G. EME</b>	THE ROLE OF INTERNATIONAL ECONOMIC INSTITUTIONS IN THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF NIGERIA: A CRITICAL EXAMINATION OF THE CONTRIBUTIONS OF THE IMF, EORLD BANK, IWORLD TRADE ORGANIZATION (WTO) & WORLD BANK	378
<b>Emmanuel Ebuka Nwankwor Victoria Folakemi Akinjogunla</b>	Geospatial Approaches to Assessing the Impacts of Cimate Variability on Aquatic Ecosystems and Fisheries: Insights from Lagos Lagoon	387
<b>Kuyliyeva Orzigul Rajabboevna</b>	KİŞİLERARASI İLETİŞİM VE DAVRANIŞI ANLAMININ PSİKOLOJİK İŞLEMSEL ANALİZİ	396
<b>Odilbekov Mansurbek Maxmudjon o'g'li Abduqaxxorova Mubina Abdusattor qizi</b>	STRESSGA CHIDAMLILIK VA KASBIY MOTIVATSIYA O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNING PSIXOLOGIK TAHLILI	401
<b>Mansurbek Odilbekov Ilxomova Durdonaxon</b>	SHAXSNING O'ZINI BAHOLASHI VA IJTIMOYIY MOSLASHUV DARAJASI O'RTASIDAGI PSIXOLOGIK BOG'LIQLIK	403
<b>Mamanazarov Uchqun Burxon o 'g 'li Abdullaeva Afruza Umiq qizi</b>	THE STUDY OF FAMILY RELATIONSHIPS IN THE RESEARCH OF FOREIGN PSYCHOLOGISTS	407
<b>SSSG 'ofurov Jamoliddin</b>	MATEMATIKA O'QITISHNING KLASSIK METODLARIDAN ZAMONAVIY USULLARIGA O'TISH ASOSLARI	412
<b>Abdelbasset TAMERSIT Soumia MOUFFOUK Chaïma MOUFFOUK Hamada HABA</b>	Cytotoxicity of Halogeton Sativus and molecular docking analysis of bioactive constituents against caspase-3 enzyme	417
<b>Abdelbasset TAMERSIT Soumia MOUFFOUK Chaïma MOUFFOUK Hamada HABA</b>	Anticancer phytosterols from Halogeton Sativus as natural inhibitors of EGF receptor, An in silico approach	418
<b>Abdelbasset TAMERSIT Soumia MOUFFOUK Chaïma MOUFFOUK Hamada HABA</b>	Extraction, isolation and in vitro antioxidant activity of Halogeton Sativus crude extracts	419
<b>Nauman Ahmed Rafia Mukhtar Rizwan Hanif M.Adnan Qayyum Shah Hafiz Muhammad Sajjad</b>	Phytochemical investigation and in silico anti-inflammatory activity,of the species Halogeton Sativus	420
<b>Nauman Ahmed Rafia Mukhtar Rizwan Hanif M.Adnan Qayyum Shah Hafiz Muhammad Sajjad</b>	Online Car Recommendation System: Enhancing User Decision-Making in the Automobile Market	421
<b>Gunay Aliyeva Victoria Folakemi Akinjogunla Bashir Abdullahi Sani Charity Ebelechukwu Ejikeme Binta Isyaku Usman Nimota Motunrayo Badrudeen-Bello</b>	Next Generation Web-Based Voting System Economic and Social Contributions of Artisanal Fisheries to Community Livelihoods in Kano State	422
<b>Serap ALDEMİR Muhammed ÖZGÖLET</b>	HİDROJEL ENKAPSÜLLÜ KIRMIZI ASMA YAPRAĞI FENOLİKLERİYLE GLUTENSİZ KEKLERİN GELİŞTİRİLMESİ:	423
		434

**SHAXSNING O'ZINI BAHOLASHI VA IJTIMOY MOSLASHUV DARAJASI  
O'RTASIDAGI PSIXOLOGIK BOG'LIQLIK**

**Mansurbek Odilbekov**

**Oriental universiteti Uzluksiz ta'lim pedagogikasi kafedrası**

**katta o'qituvchisi**

**Ixxomova Durdonaxon**

**Oriental universiteti Uzluksiz ta'lim pedagogikasi kafedrası**

**1 - bosqich talabasi**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada shaxsning o'zini baholash darajasi va ijtimoiy moslashuv jarayonlari o'rtasidagi psixologik bog'liqlik nazariy hamda empirik jihatdan tahlil etilgan. Shaxsning o'zini adekvat baholashi uning ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashuvi, shaxslararo munosabatlari va ijtimoiy faolligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida o'zini baholash darajasi yuqori bo'lgan shaxslarda ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlari ham yuqori ekanligi aniqlandi. O'tkazilgan empirik tadqiqot natijalari ushbu psixologik ko'rsatkichlar o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari amaliy psixologiya va ijtimoiy moslashuv bilan bog'liq psixokorreksion ishlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** o'zini baholash, ijtimoiy moslashuv, shaxs, shaxslararo munosabatlar, psixologik barqarorlik.

**Аннотация:** В данной статье теоретически и эмпирически анализируется психологическая взаимосвязь между уровнем самооценки личности и процессами социальной адаптации. Адекватная самооценка рассматривается как один из важнейших факторов успешной социальной адаптации, межличностных отношений и социальной активности личности. В ходе исследования было установлено, что у лиц с высоким уровнем самооценки показатели социальной адаптации также находятся на высоком уровне. Результаты эмпирического исследования свидетельствуют о наличии положительной корреляции между данными психологическими показателями. Полученные результаты имеют важное значение для практической психологии и психокоррекционной работы.

**Ключевые слова:** самооценка, социальная адаптация, личность, межличностные отношения, психологическая устойчивость.

**Abstract:** This article provides a theoretical and empirical analysis of the psychological relationship between self-esteem and the level of social adaptation. Adequate self-esteem is considered one of the key factors determining successful social adaptation, interpersonal relationships, and social activity. The study revealed that individuals with a high level of self-esteem demonstrate higher indicators of social adaptation. The results of the empirical research indicate a positive correlation between these psychological variables. The findings are significant for applied psychology and psychocorrectional practices.

**Keywords:** self-esteem, social adaptation, personality, interpersonal relations, psychological stability.

**KIRISH.**

Zamonaviy jamiyat sharoitida shaxsning ijtimoiy muhitga moslashuvi uning psixologik farovonligi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy moslashuv jarayonida

shaxsning o'zini qanday baholashi, o'z imkoniyatlari va qadr-qimmatini qay darajada anglashiga bevosita bog'liqdir. O'zini baholash shaxsning ijtimoiy xulq-atvori, shaxslararo munosabatlari va muammoli vaziyatlarga munosabatini belgilovchi muhim psixologik xususiyat hisoblanadi. O'zini past baholash ijtimoiy chekinish, ishonchsizlik va moslashuvdagi qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin bo'lsa, o'zini adekvat va yuqori baholash shaxsning ijtimoiy faolligi va moslashuv darajasini oshiradi. Shu sababli o'zini baholash va ijtimoiy moslashuv o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb masala hisoblanadi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zini baholash muammosi U. Jeyms, K. Rojers, A. Bandura tadqiqotlarida keng yoritilgan bo'lib, u shaxsning o'ziga bo'lgan munosabati va o'zini idrok etish tizimi sifatida talqin etiladi. Ijtimoiy moslashuv masalalari esa J. Piaget, E. Erikson, A. Adler ilmiy ishlarida shaxsning jamiyatga moslashish jarayoni sifatida izohlangan. Mahalliy psixologlar tomonidan ham o'zini baholash va shaxslararo munosabatlar masalalari o'rganilgan, biroq o'zini baholash darajasi va ijtimoiy moslashuv o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni empirik jihatdan chuqur tahlil qilish yetarli darajada amalga oshirilmagan.

### **Tadqiqotning maqsadi va vazifalari**

#### **Tadqiqot maqsadi:**

Shaxsning o'zini baholash darajasi va ijtimoiy moslashuv o'rtasidagi psixologik bog'liqlikni aniqlash.

#### **Tadqiqot vazifalari:**

- o'zini baholash va ijtimoiy moslashuv tushunchalarining psixologik mohiyatini tahlil qilish;
- respondentlarning o'zini baholash darajasini aniqlash;
- ijtimoiy moslashuv darajasini baholash;
- ushbu ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash va tahlil qilish.

**Tadqiqot natijalari va ularning tahlili.** O'tkazilgan empirik tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, respondentlarning **43 foizida o'zini baholash darajasi yuqori, 37 foizida o'rtacha va 20 foizida past** ekanligi aniqlangan. Bu holat talaba-yoshlar orasida o'zini baholash darajasi bo'yicha sezilarli individual farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatdiki, o'zini baholash darajasi yuqori bo'lgan respondentlarda ijtimoiy moslashuv darajasi ham nisbatan yuqori ekanligi kuzatilgan. Aksincha, o'zini baholash darajasi past bo'lgan respondentlarda ijtimoiy moslashuvda muayyan qiyinchiliklar namoyon bo'lishi aniqlangan. Bu holat shaxsning o'ziga bo'lgan munosabati va ijtimoiy muhitga moslashuvi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

Korrelyatsion tahlil natijalari shaxsning o'zini baholashi va ijtimoiy moslashuv darajasi o'rtasida ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik mavjudligini tasdiqladi ( $r \approx 0,59$ ). Ushbu ko'rsatkich o'zini baholash darajasi oshgani sari shaxsning ijtimoiy moslashuv darajasi ham ortib borishini anglatadi. Demak, adekvat va yuqori o'zini baholash shaxsning ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlovchi muhim psixologik omillardan biri hisoblanadi.

## 1-jadval

### Respondentlarda o'zini baholash va ijtimoiy moslashuv darajalarining taqsimlanishi (n = 30)

Ko'rsatkichlar	Past daraja	O'rtacha daraja	Yuqori daraja
O'zini baholash	20 %	37 %	43 %
Ijtimoiy moslashuv	23 %	35 %	42 %

**Izoh:** Jadvalda respondentlarning o'zini baholash va ijtimoiy moslashuv darajalari foiz ko'rinishida keltirilgan bo'lib, o'zini baholash darajasi yuqori bo'lgan respondentlarda ijtimoiy moslashuv darajasi ham yuqori ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Mazkur tadqiqot shaxsning o'zini baholash darajasi va ijtimoiy moslashuv jarayonlari o'rtasidagi psixologik bog'liqlikni empirik jihatdan o'rganishga qaratildi. Zamonaviy jamiyat sharoitida shaxsning ijtimoiy muhitga moslashuvi uning psixologik farovonligi, shaxslararo munosabatlar sifati va ijtimoiy faolligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu jarayonda o'zini baholash muhim psixologik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari ushbu ikki psixologik ko'rsatkich o'rtasida uzviy va barqaror bog'liqlik mavjudligini tasdiqladi.

Empirik tahlillar natijasida respondentlarning o'zini baholash darajasi bo'yicha sezilarli individual farqlar mavjudligi aniqlandi. O'zini baholash darajasi yuqori bo'lgan shaxslar ijtimoiy muhitga nisbatan faolroq munosabatda bo'lib, shaxslararo aloqalarda ochiqlik, o'ziga ishonch va ijtimoiy tashabbuskorlikni namoyon etadilar. Bunday shaxslar yangi ijtimoiy vaziyatlarga moslashishda kamroq psixologik qiyinchiliklarga duch keladi hamda ijtimoiy rollarni samarali bajarish qobiliyatiga ega bo'ladi. Aksincha, o'zini baholash darajasi past bo'lgan respondentlarda ijtimoiy moslashuv jarayonida muayyan qiyinchiliklar, ishonchsizlik, ijtimoiy chekinish va o'z imkoniyatlarini yetarli darajada namoyon eta olmaslik holatlari kuzatildi.

## XULOSA

Ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatdiki, shaxsning o'ziga bo'lgan munosabati uning ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqalarini bevosita belgilab beradi. O'zini adekvat baholash shaxsda ijtimoiy vaziyatlarni real idrok etish, muammoli holatlarga moslashuvchan yondashish va konstruktiv xulq-atvorni shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda aniqlangan ijobiy korrelyatsion bog'liqlik ( $r \approx 0,59$ ) o'zini baholash darajasi oshgani sari ijtimoiy moslashuv darajasi ham ortib borishini ko'rsatadi. Bu natija o'zini baholashning shaxs ijtimoiy rivojlanishidagi yetakchi psixologik omillardan biri ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Tadqiqot natijalari nazariy jihatdan shaxs psixologiyasi va ijtimoiy psixologiya sohalaridagi mavjud qarashlarni boyitadi. Ayniqsa, o'zini baholashni shaxsning ichki psixologik resursi sifatida talqin qilish hamda uni ijtimoiy moslashuv jarayonlarining muhim determinantlaridan biri sifatida ko'rsatish mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyatini oshiradi. Olingan empirik natijalar shaxsning o'zini baholashi faqat ichki hissiy holat emas, balki uning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sirini belgilovchi muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Amaliy jihatdan tadqiqot natijalari ta'lim muassasalarida, ayniqsa talaba-yoshlar bilan olib boriladigan psixologik xizmat faoliyatida muhim ahamiyatga ega. O'zini baholashni rivojlantirishga qaratilgan psixologik treninglar, shaxsiy o'sish dasturlari va psixokorreksion mashg'ulotlar talabalarning ijtimoiy moslashuv darajasini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, past o'zini baholashga ega shaxslar bilan individual va guruhli psixologik ishlash, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklarni kamaytirishga yordam beradi.

Mazkur tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Jumladan, respondentlar sonining nisbatan kamligi va tadqiqotning faqat talaba-yoshlar doirasida olib borilgani natijalarni keng ijtimoiy guruhlariga umumlashtirishda ehtiyotkorlikni talab etadi. Kelgusida ushbu mavzu bo'yicha turli yosh davrlari va kasbiy guruhlar vakillari ishtirokida kengroq empirik tadqiqotlar olib borish, shuningdek, o'zini baholash va ijtimoiy moslashuv o'rtasidagi bog'liqlikni boshqa psixologik omillar bilan birgalikda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari shaxsning o'zini baholash darajasi uning ijtimoiy moslashuv jarayonida muhim rol o'ynashini ko'rsatdi. O'zini adekvat va yuqori baholaydigan shaxslar ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashadi, shaxslararo munosabatlarda faol bo'ladi va psixologik barqarorlikni namoyon etadi. Shu bois o'zini baholashni rivojlantirish shaxsning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashga qaratilgan psixologik ishlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. James W. *The Principles of Psychology*. — New York, 1890.
2. Rogers C. *Client-Centered Therapy*. — Boston, 1951.
3. Bandura A. *Self-efficacy: The Exercise of Control*. — New York, 1997.
4. Erikson E. *Identity and the Life Cycle*. — New York, 1968.
5. Rubinstein S. L. *Osnovy obshchey psikhologii*. — Moskva, 2002.